

AMALIY BEZAK SAN'ATI MASHG'ULOTLARIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

*Kamoliddin Behzod nomli Milliy
rassomlik va Dizayn instituti
Amaliy bezak san'ati kafedrası
Mudiri, dotsent D.T.Xaytmetov*

Аннотация

Mazkur maqola ustoz-shogird an'analari asosida amaliy san'at mashg'ulotlarini o'qitish jarayonida bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e'tibor berish, shuningdek amaliy san'atlardagi ustoz-shogird an'alarining muhimligi va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ustoz-shogird munosabatlari orqali san'atdagi bilimlar va ko'nikmalar avloddan avlodga o'tishi, shogirdlarning ijodiy rivoji va an'anaviy metodlarning saqlanishi ta'riflanadi. Maqola, shuningdek, ustozlar va shogirdlar o'rtasidagi ishonch, hurmat va axloqiy qoidalarga asoslangan ishlash usullari, ijodkorning professional shakllanishidagi muammolarni ham o'rganadi. An'anaviy amaliy san'atdagi bu o'zaro munosabatlar, zamonaviy ijodkorlar uchun ahamiyatli saboqlar va qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ustoz-shogird, an'ana, avlod, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, amaliy bezak san'ati.

Аннотация

В данной статье рассматривается важность и значимость традиции учитель-ученик в процессе преподавания прикладных искусств, а также внимание к всестороннему формированию молодых специалистов на современном этапе. Описывается передача знаний и навыков через отношения учителя и ученика, творческое развитие учеников и сохранение традиционных методов. Статья также изучает методы работы, основанные на доверии, уважении и этических нормах между учителями и учениками, а также проблемы, возникающие в процессе профессионального становления творцов. Эти взаимные отношения в традиционных прикладных искусствах содержат важные уроки и трудности для современных творцов.

Ключевые слова: Мастер-ученик, традиция, поколение, образование, обучение, знания, навыки, декоративно-прикладное искусство.

Annotation

This article discusses the importance and significance of the teacher-student tradition in the process of teaching applied arts, as well as the focus on the comprehensive development of young specialists today. It describes the transmission of knowledge and skills through the relationship between teacher and student, the

creative development of students, and the preservation of traditional methods. The article also examines work methods based on trust, respect, and ethical norms between teachers and students, as well as the challenges faced in the professional formation of creators. These mutual relationships in traditional applied arts contain valuable lessons and difficulties for contemporary creators.

Keywords: Master-apprentice, tradition, generation, education, training, knowledge, skills, arts and crafts.

Ustoz-shogird an'analari asosida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati, milliy va jahon badiiy madaniyatining bir qismi sifatida ko'p asrlik jamoaviy ijodkorlik, ko'p avlodlarning donoligi va iste'dodining boyitilgan tajribasini o'zida mujassam etgan, talabalarning ijodkorligi va ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochadi, shuningdek ularning hayotini ma'naviy jihatdan boy va barqaror bo'lishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassis o'qituvchilarga tarbiyaviy ta'sir qiluvchi ustoz-shogird an'analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur'atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta'lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo'lg'usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o'z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e'tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an'alaridan o'rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o'z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e'tibor har qachongacha nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o'zgarishi borasida to'plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o'zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an'alarini yana-da rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir.

Ustoz-shogird an'analari ko'plab mehnat jamoalarida, shu jumladan, davlat idoralarida qo'llanib keladi. Biroq, hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi.

Hayotda yozilmagan, ammo unga amal qilinmasa, xunuk oqibatlarga olib keladigan qonunlar bor. Shulardan biri ustoz-shogird munosabatlaridir. Xalq orasida ustoz-shogird odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga yetib, rivojlanib kelmoqda. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Ustoz-shogird

rishtalari juda nozik bo'lib, qaltis harakat qilinsa, uzilishi, keyin ulanganda ham tugun qolishi mumkin. Ana shunday hol yuz bermasligi uchun, avvalo, shogird ustoziga cheksiz mehr qo'yishi, ishonishi, uning har bir so'zi, xatti-harakatini tushunishi, unga rioya qilishi shart. Shogird ustozidan o'rganganlarini maromiga yetkazib, mustaqil ish boshlashdan oldin ustozini rozi qilib, duosini olishi ham odat tusiga kirgan. Ustoz yo'rig'iga yurmagan shogirdlarning esa kosasi oqarmagan, biri ikki bo'lmagan. Ustoz roziligini olmoq ko'ngil obodligini ta'minlashdir. Xalqimiz "Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yo'rg'alar" degan hikmatli iborani bejiz to'qimagan.

Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida shogird ustoz rahbarligida bilim yoki hunar o'rganayotgan muddatda uning har bir harakati va ish uslubini, hatto nimani qayerga qo'yish, qaysi tomoniga ko'proq e'tibor berish holatlarini ham sinchiklab kuzatishi talab qilinadi. Odatda ustoz ba'zan hunarning har bir ikir-chikirini ham aytavermaydi, balki amalda ko'rsatadi. Ehtimol, bu bilan ustoz shogirdining hushyorligini, sinchkovligi va qiziqishini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. Shu sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan shogirdning oshig'i, shubhasiz, olchi bo'ladi.

Boshqa kasblarni mutlaqo kamsitmagan holda aytish joizki, hunarlar orasida eng qiyini ilm o'rganishdir. Bu borada ustoz tanlashning ham ahamiyati katta. Avvalo, ustoz bilan shogird bir-biriga munosib bo'lishi, bir-birini tushunishi lozim. Bunda ko'proq mas'uliyat shogird zimmasiga tushadi. Negaki, shogird ustozini avaylashi, uning hurmatini joyiga qo'yishi, ba'zi injiqliklariga chidashi, igna bilan quduq qazishdek zahmadli ishga bardosh berishi shart.

Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida ustoz-shogird an'anasi – bu yoshlarni har tomonlama tarbiyalashdagi bir yo'nalishi hisoblanadi. Lekin, bu an'ana oila, maktab kabi turli mazmundagi yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy institutlarning ta'lim-tarbiyaviy ta'sirlarni davomchisi sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham ustoz-shogird faoliyatlarida oila, maktab kabi jamoalar faoliyatlari bilan hamkorlik amalga oshirilib, bir-birlarining ta'sir qilish kuchlari mustahkamlanib boradi. Ijtimoiy hayot tajribasining tasdiqlashicha insoniyatning bo'lg'usi ijtimoiy-siyosiy faolligi, ta'lim-tarbiyani avloddan-avlodga yetkazish asosida amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Bunday yuqori darajadagi tasdiqlanishlar ustozlik faoliyatini ham yuqori darajada baholash zarurligini ifodalaydi. Ustozlarning faoliyati shogirdlarda vaqt ko'rsatkichlarni umum davlat miqyosida amalga oshirishga o'rnatishdan iborat. Bu jarayonda esa vaqtni qanday taqsimlash masalasini hal qilishda ustoz ko'rsatmalari asosiy o'ringa ega. Har qanday vaqtni taqsimlashda maqsad, vazifa, vositalardan qanday foydalanish zarurligini o'rgatib shogirdlarni bo'sh vaqtlarini sermazmun yo'nalishda bilim, ko'nikma, malakalar egallashga jalb qila bilish ustoz siymosini yana-da obro'-e'tiborli shaxsga aylantiradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ustoz-shogirdlik an'anasining faqat moddiy-iqtisodiy tomoniga e'tibor qilinadigan bo'lsa bu faoliyat asosi hech qanday ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Demak, bu faoliyat asosida ixtiyoriylik tamoyili bilan bir qatorda, tizimli ravishda hamkorlik mazmunida har ikkala tomonini mutaxassislik darajasini yuqori darajaga ko'tarishi ham o'z ifodasini topadi. Ularni yuqori darajadagi umum mutaxassislik xususiyatlari bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalari ham rivojlanib, shakllanib boradi. Ya'ni ulug' mutafakkirlarining fikrlariga ko'ra bo'lg'usi mutaxassisni har tomonlama shakllantirish uchun uni o'zini ham har tomonlama bilish zarur degan talablar "Ustoz shogird" an'analari asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi o'sib kelayotgan yoshlar xayotga bo'lgan qiziqishlarini xilma-xil tarzda fikr bildiradilar, bu yoshda kelajakdagi shaxsning xususiyatlari shakllana boshlaydi, shuning uchun o'z xalqining an'alariga doimiy qiziqishni shakllantirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turayevich, K. D. (2023). The state of development of artistic and creative abilities of students in the classroom of applied decorative and applied art in modern educational practice. *Genius Repository*, 24, 70-73.
2. М.Ю.Махкамова. "Педагогика" дарслик. -Т.: 2022. 288 бет
3. Василькова Ю.В. Лекции по социальной педагогике.: Теория и история. М.: Перспектива, 2010.-736 стр.
4. Haytmetov D. [Development of students' art creative talents in applicable decorative classes](#). – Web of scinttist: international scientific research journal, 2021. – P. 167-171.
5. Turaevich, H. D. (2022). A modern approach to applied art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 115-120.
6. 6. Хайтметов, Д. Т. (2023, April). ОРИГИНАЛЬНОСТЬ ФОРМ И УКРАШЕНИЙ, РАЗНООБРАЗИЕ ЦВЕТОВОЙ ГАММЫ В ГЛАЗУРОВАННОЙ КЕРАМИКЕ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 292-296).
7. Turayevich, K. D. (2023). The state of development of artistic and creative abilities of students in the classroom of applied decorative and applied art in modern educational practice. *Genius Repository*, 24, 70-73.
8. Ғуломов С.С., Булатов С.С. Шарқона "устоз-шогирд" одоби.-Т., 1997, 12-13 б.